



PAPER

O‘ZBEK TILIDA FE‘L KATEGORIYALARINING SEMANTIK QIRRALARI

Mehmonova Mubinaxon Muxtorjon qizi ^{1,*}

¹Qo‘qon davlat universiteti Gumanitar va tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1- kurs talabasi

*mehmonova@gmail.com

Abstract

Mazkur ilmiy ishda o‘zbek tilida fe‘l kategoriyalarining semantik mohiyati tizimli - lisoniy yondashuv asosida tahlil etiladi. Fe‘l predikativ birlik sifatida harakat va holatni ifodalash bilan birga, grammatik kategoriyalar orqali mazmun strukturaviy jihatdan tashkil etadi. Zamon temporalikni, mayl moddalikni, nisbat esa aktantlar o‘rtasidagi munosabatni semantik jihatdan belgilaydi. Tadqiqotda fe‘l kategoriyalarining funksional semantik maydoni, ularning nutq jarayonida pragmatik imkoniyatlari hamda kommunikativ vazifalari ilmiy asosda yoritiladi. Natijada fe‘l tizimining ko‘p qatlamli semantik tabiati aniqlashtiriladi.

Key words: o‘timli - o‘timsizlik, fe‘l vazifa shakllari, fe‘l munosabat shakllari, nisbat ma‘nosi, sintaktik xususiyati.

Kirish

Fe‘l - o‘zbek tilidagi mustaqil so‘z turkumlaridan biri bo‘lib, shaxs yoki predmetning harakati, holati, hamda jarayonini bildirib, nima qilmoq? nima bo‘lmoq? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Fe‘l gapda asosan kesim vazifasida keladi va fikrning markaziy qismini tashkil etadi. Fe‘l o‘zbek tilining eng muhim so‘z turkumlaridan biri bo‘lib, gap mazmunini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Harakat va holatni ifodalashi, zamon, mayl, nisbat jabi grammatik kategoriyalarga egaligi bilan boshqa so‘z turkumlaridan ajralib

turadi. Mazkur kategoriyalar fe‘lning morfologik paradigmasini shakllantiradi va uning grammatik imkoniyatlarini belgilaydi. Sintaktik jihatdan fe‘l asosan kesim vazifasida kelib, subyekt bilan predikativ munosabatga kirishadi, hamda obyekt va boshqa gap bo‘laklarini boshqaradi. Shuningdek, fe‘l valentlik xususiyati orqali gapning struktur - semantik qurilishini ta‘minlaydi. Shu bois fe‘l kategoriyasi o‘zbek tilida grammatik tizimda markaziy o‘rin egallaydi, va tilning kommunikativ xususiyatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

1 Fe‘lning o‘timli va o‘timsiz xususiyatlarini

Compiled on: March 17, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

ishlatilish o'rni

Fe'l morfologik xususiyatiga ko'ra, o'timli va o'timsiz fe'llarga bo'linadi. Tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lana oladigan fe'llar o'timli fe'l deyiladi. Masalan: o'qimoq (kitobni o'qimoq), yozmoq (inshoni yozmoq). Tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lana ololmaydigan fe'llar o'timsiz fe'llar deyiladi. Masalan: uxlamoq, yurmoq, kulmoq.

O'timli fe'llarga majhul yoki o'zlik nisbati qo'shimchasi qo'shilsa, o'timli fe'llar o'timsiz fe'lga aylanadi. Qurmoq o'timli fe'l, qurilmoq o'timsiz fe'l. O'timsiz fe'llarga orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilsa, o'timsiz fe'l o'timli fe'lga aylanadi. Masalan: uxlamoq o'timsiz; uxlatmoq o'timsiz; bola uxlatdi, bolani uxlatdi.

Nisbat qo'shimchalari fe'llarning o'timli o'timsizligiga ta'sir qilishi uchun majhul yoki o'zlik nisbat qo'shimchasi o'timli fe'llarga; orttirma nisbat qo'shimchasi esa o'timsiz fe'llarga qo'shilishi kerak.

Fe'l so'z turkumi so'z yasash tizimiga ega: gul+la=gulla, yalt+ ira=yaltira, qora+y= qoray, sen+sira=sensira, ikki+lan=ikkilan. Boshqa so'z turkumlaridan fe'l yasash mumkin, ammo fe'ldan fe'l yasalmaydi. Fe'l so'z turkumi bo'lishli va bo'lishsiz ma'noga ega. Agar fe'llarga -ma qo'shimchasi qo'shilsa bo'lishsiz. Masalan bormadi, o'qimadi, yozmadi. -ma qo'shimchasini olmagan so'zlar bo'lishli fe'llar hisoblanadi. Masalan, o'qidi, yozdi, bordi.

2 Fe'lning vazifa shakllari va ishlatilish ahamiyati

Fe'lning vazifa shakllari - fe'lning turli gap bo'laklari vazifasida kelishi uchun xoslangan shakldir.

Fe'l quyidagi vazifa shakllariga ega:

1. sof fe'l
2. harakat nomi
3. sifatdosh
4. ravishdosh

1. Sof fe'l shakli - fe'lni gapda kesim vazifasini bajarishga xoslaydigan shakli. Sif fe'l shakli zamon, mayl, shax- son ma'nolarini ko'rsatadi. Masalan: Azizim, qizingizni baxtini o'zgalarning eshigidan qidirmang gapida qidirmang fe'li sof fe'l shakli bo'lib, kelasi zamon, ikkinchi shaxs ko'plik va buyruq - istak ma'nolarini ifodalaydi.

2. Harakat nomi - fe'lning otga xoslangan shakli. Qo'shimchalari: - sh, -ish, - v, - uv, - moq, - mak. Masalan: o'qish, yozish, ko'rmak, demak kabilar. Demak harakat nomi shakli demak modal fe'li bilan omonimlik hosil qiladi. Masalan: a) Oldiga kelganini yemak - hayvonning ishi, og'ziga kelganini demak - nodonning ishi. b) Demak, mening gapim rost. Birinchi gapda harakat nomi ikkinchi gapda modal so'z bo'lgan.

Harakat nomi shaklining fe'lga xos shakllari

- a) mazmun harakatni bildiradi
- b) o'timli - o'timsizlikni ko'rsatish xususiyatiga ega. O'qimoq o'timli fe'l, bormoq o'timsiz fe'l hisoblanadi.
- c) boshqa fe'l shakllari kabi kelishiklarni boshqarib keladi, kitobni o'qimoq, uyda yotmoq.
- d) nisbat qo'shimchalarini qabul qiladi o'qish- aniq nisbatda, o'qitish- orttirma nisbatda.
- e) boshqa fe'llar kabi bo'lishli bo'lishsizlik xususiyatiga ega. Harakat nomini bo'lishsizlik shakli

- maslik: o'qish - o'qimaslik.

Harakat nomi zamon, mayl, shaxs- sonni ko'rsatmaydi, fe'lning noaniq shakli hisoblanadi. Lug'atlarda fe'llar harakat nomi shaklida beriladi. Masalan: to read- o'qimoq kabi.

3. Sifatdosh fe'lning sifatga xoslangan shakli.

Qo'shimchalari: -gan (kan, qan), - adigan, -ydigan, - r, -ar, -ayotgan. Sifatdoshlar belgi bildirishi bilan sifatga o'xshaydi. Sifatlar shaxs va narsaning turg'un, barqaror, belgisini bildirsa, sifatdoshlar o'zgarilish harakat belgisini ifodalaydi. Masalan: oq (sifat) gul, oqar (sifatdosh) daryo.

Sifatdoshning belgilari:

- a) harakat tushunchasini anglatadi. Masalan: U doimo izlanadigan kishilardan biri.
- b) nisbat, o'timli- o'timsizlik, bo'lishli- bo'lishsizlik ma'nolarini ifodalaydi. M: kiyingan bola- o'zlik nisbat, chaqirilgan mehmon - majhul nisbatda.
- c) boshqa so'zlarni boshqarib keladi. M: Vatanni sevgan kishi, maktabga ketayotgan qiz.
- d) shaxs va narsaning harakat bilan bog'liq belgisini bildirib, gapda sifatlovchi vazifasida keladi, shaklan o'zgarmaydi. Masalan: Do'stlik bo'lmagan joyda ishning rivoji ham bo'lmaydi.
- e) fe'lga xoslangan zamon ma'nosini ifodalaydi. Zamoni ifodalashiga ko'ra sifatdoshlar 3 ga

bo'linadi.

- gan, -kan, -qan o'tgan zamon sifatdoshi
- ayotgan hozirgi zamon sifatdoshi
- adigan, - ydigan, - a (r), kelasi zamon sifatdoshi

M: Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.

4. Ravishdosh - fe'lning ravishga xoslangan shakli. Fe'lga bog'lanib harakatning belgisini bildiradi. M: shoshib keldi, qanday keldi? Ravishdosh asos - negizi fe'l bo'lgan va fe'lga -b, -ib, -a, -y, -gach (-kach, -qach), -guncha (-quncha, -kuncha), -gancha (-qancha, -kancha), -gani (-qani, -kani) qo'shimchalari qo'shilishi natijasida hosil qilingan

shakldir. M: shoshib kelmoq, kulib gapirmoq, o'ylab javob bermoq.

Ravishdosh qo'shimchalarining ma'nolari:

-b (-ib), -a (-y) Asosan holatni bildiradi: kulib gapirmoq (qanday? gapirmoq). Ba'zan sababni bildiradi: qo'rib kirmadi (nima sababdan? kirmadi). Ba'zan paytni bildiradi. Bobur gulni yana bir hidlab boshidagi sallasining qatiga qistirib qo'ydi. (qachon? qistirib qo'ydi).

-gancha, (-qancha, -kancha) holatni bildiradi. Masalan: Suvga tkilguncha o'ylanib qoladi.

-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha -quncha) paytni bildiradi. M: Toqqa yetgach qo'ylarini o'z holiga tashlab qo'ydi. Aslida, qosh qorayguncha yetib olish kerak.

-gani (-qani -kani) Maqasadni bildiradi. M: Siz bilan suhbatlashgani keldim.

Ravishdoshning sintaktik vazifasi:

Fe'lga bog'lanib hol Masaln: Gapni bilib-bilmay gapirmaslik kerak. Gapning oxirida kelsa fe'l- kesim M: Ishning boshi boshlanguncha. 3 Fe'llarning munosabat shakllari va ularning qo'llanish usullari Fe'llarning zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Munosabat shakllarining ikkinchi nomi sintaktik shakl yasovchilar deb yuritiladi. Bu shakllarga ega har qanday fe'l gapda kesim vazifasida keladi.

1.Zamon shakllari - fe'l asosidan anglashilgan harakat - holatning uch zamondan biriga mansubligini bildiruvchi shakllar. Fe'l uchta zamon shakllariga ega: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

O'tgan zamon shakllari harakat va holatni gap aytilayotgan vaqtdan oldin bo'lganini bildiradi. Bu

zamon shakllari fe'l asosiga -di, -b, -gan (-kan -qan) qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. O'tgan zamonning barcha qo'shimchalari uslubiy betarf qo'shimchlar hisoblanadi. M: keldi, borib, olgan, bergan.

Hozirgi zamon shakllari harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtda yuz berishini ifodalaydi. Bu zamon shakllari fe'l asoslariga - yap, -moqda, -(a) yotir qo'shimchlarini qo'shish bilan hosil qilinadi. Uslubiy betaraf qo'shimcha -yap. Uslubiy xoslangan qo'shimchlar -yotir, (ayotir) -moqda.

Kelasi zamon shakllari harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan so'ng yuz berishini bildiradi. Kelasi zamonning uslubiy betaraf qo'shimchlari -a(-y). -y qo'shimchasi ba'zan harakatning doimiy, har uch zamonga oidligini ham ifodalaydi. -(a) -ar, qo'shimchasi kelasi zamoni gumon taxmin yo'li bilan ifodalaydi. M: Ertaga mashina kelar.

Uslubiy xoslangan qo'shimchalar -jak, -gay -(kay, qay), -ur, gusi shakllari badiiy va publitsistik uslubga xosdir. M: borajakman, borgayman.

2.Mayl shakllari fe'l asosida ifodalangan harakat- holat haqida xabar, buyruq- istak, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'l shakllari. Fe'llarning 4 ta mayl shakli bor. Xabar mayli, buyruq-istak mayli, shart mayli, maqsad mayli.

Xabar mayli (ijro mayli) harakat va holatni bajarilish yoki bajarilmasligi haqida xabar beruvchi fe'l shakli. M: Madinaning qop - qora ko'zlari chaq nab turadi. Xabar mayli har uchala zamoni ham bildiradi.

Buyruq - istak mayli harakat va holatni bajarish yoki bajarmaslik haqidagi buyruq, istak, iltimos, maslahat ma'nolarini bildirgan fe'l shakli. Harakatni bajarishga dav'at etish ma'nosini bildiradi. Buyruq- istak mayli shakllari quyidagi qo'shimchalar qo'shish orqali yasaladi. -(a) y, -(a) yin, -gin, -(i)ng, sin, -(a)lik, -(i)nglar.

Birlik Ko'plik 1shaxs. boray, o'qiy boraylik, o'qiylik 2shaxs. borgin, borgil boring, boringiz 3shaxs. borsin borsinlar

Shart mayli - bishqa bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat hamda holatni, shuningdek, istak-xohishni bildirgan fe'l shakli va u -sa qo'shimchasi yordamida yasaladi. Kelasi zamon ma'nosini bildiradi.

Shart ma'nosi - ergash gapning kesimi tarkibida

kelib nomustaqil kesimlik shaklini yasaydi.

Istak ma'nosi - gapning oxirida kelib mustaqil kesimlik shaklini yasaydi. Maqsad mayli - harakatning biror maqsadda bajarilishini bildiradi. Fe'l asosiga - moqchi qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. M: kelmoqchiman, bormoqchiman.

3. Shaxs- son shakllari fe'ldan ifodalangan harakat va holatni bajaruvchi shaxsni bildirib, fe'lni kesim sifatida shakllantiruvchi ega bilan bog'lab keluvchi shakllardir. Fe'llarning 1 va 2 shaxsi maxsus shakllari orqali ifodalanadi. 3 shaxsda esa zamon qo'shimchalari shaxs ma'nosini ham ifodalaydi. O'tgan zamonning -di hamda kelasi zamon shart mayli -sa shakllaridan so'ng -m, -ng, -k, -ingiz qo'shimchlari qo'llaniladi.

Shaxs- son qo'shimchalari tuslovchi qo'shimchalar deb ataladi. So'zlarning shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgarishiga tuslanish deyiladi.

4 Fe'llarning nisbat ma'nosi va ularning qo'llanish usullari

Nisbat - bajaruvchining harakat- holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakli. Fe'ldan anglashilgan harakat - holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi fe'l shakllariga nisbat shakllari deyiladi. Fe'lda 5 ta nisbat shakli bor. Aniq nisbat, o'zlik nisbat, majhul nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbati.

Aniq nisbat - bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shakli. Aniq nisbat bosh nisbat deb ham ataladi va harakat holatning ega orqali ifodalangan shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi. M: Madina maktabga bordi.

O'zlik nisbat - bajaruvchining o'z ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli qo'shimchalari -(i)l, -(i)n Masalan: Durdona yuvindi.

Majhul nisbat - bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni bildiradigan fe'l shakli qo'shimchalari -(i)l, -(i)n Masalan: Binolar qurildi. Majhul nisbat fe'li harakat bajaruvchisini noaniqligini ifodalaydi va aniq nisbat to'ldiruvchisini gap egasi darajasiga keltiradi. Shuning uchun majhul nisbatda asosiy ma'no ish harakatining bajaruvchisiga emas, balki nima qilganiga qaratiladi.

Orttirma nisbat - ta'sir ostida boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakli. Fe'l o'zagidan ifodalangan harakatga dav'at qilingan shaxs mapnosini bildiradi. Qo'shimchalari -t, -dir, -tir, -giz, -qiz, -kiz, -g'iz, -kaz, - gaz, - ir, -ar, - iz. Orttirma nisbatda dav'at etuvchi shaxs ham qo'shiladi. Ega vazifasidagi so'z harakat- holatning bajarilishiga ta'sir etadi. Masalan: Alisher uy qurdirdi. Birgalik nisbat - birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakli. Qo'shimchalari -sh, -ish bular fe'lning birgalik nisbat shaklini yasaydi va harakat bajaruvchisining ko'p ekanini ifodalab keladi.

5 Fe'lning sintaktik xususiyatlari

Fe'l barcha so'z turkumlarini o'ziga tobelantirib keladi:

Ot + fe'l: kitobni o'qimoq

Son + fe'l: birinchi marta kelmoq

Sifat + fe'l: chiroyli kiyinmoq

Olmosh + fe'l: undan so'ramoq

Ravish + fe'l: tez yugurmoq

Fe'l + fe'l: kulib gapirmoq

Fe'lning gapdagi asosiy sintaktik vazifasi kesimdir. M: Lobar gullarga suv quydi.

Xulosa

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, o'zbek tilida fe'l kategoriyalari harakat va holatning mazmuniy tuzilishini ko'p qirrali tarzda ifodalaydigan mukammal grammatik tizimdir. Zamon harakatning vaqt bilan bog'liqligini, mayl so'zlovchining munosabati va voqealik darajasini, nisbat esa subyekt va obyekt o'rtasidagi semantik aloqani ko'rsatadi.

Bo'lishli va bo'lishsizlik shakllari tasdiq hamda inkorni bildiradi, shaxs - son qo'shimchalari esa predikativlikni yuzaga chuqaradi. Ushbu kategoriyalar o'zaro uyg'unlashib, fikrning aniqligi, mantiqiyiligini va kommunikativ samaradorligini ta'minlaydi. Demak fe'l kategoriyalari til tizimida nafaqat grammatik, balki chuqur semantik va funksional ahamiyatga ega bo'lgan markaziy hodisadir.

References

1. Nurmonov, A. (2001). Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent: O'zbekiston.
2. Abdurahmonov, G., Rustamov, A. (1982). O'zbek tili grammatikasi. Toshkent: Fan
3. Mahmudov, N., Nurmonov, A. (1995). O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent: Fan.
4. Nargiza Erkaboyeva. - (2021) O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. Yosh kuch nashriyoti
5. Yo'ldoshev, B. (2010). O'zbek tilshunosligida pragmatolingvistika. Toshkent: Universitet.
6. Xudoyberganova, D. (2015). Sotsiolingvistika asoslari. Toshkent: Akademnashr
7. A. Nurmonov, A. Sobirov (2024) Struktur tilshunoslik ildizlari va yo'nalishlari. Toshkent. O'zbekiston
8. Z. Xolmonova. (2007) Tilshunoslikka kirish. Toshkent. Fan.